

## TAYLOQ TUMAN AHOLISINING O'ZGARISH DINAMIKASI

**Urokov Firdavs Ortikniyozovich**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasida assistenti*

**Aliyeva Hilola G'ayratjonovna**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Servis" faulteti talabasi*

**Voxidov Mubinjon Xurshedovich**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Servis" faulteti talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Kalitso'zlar:** aholi, aholi ko'payishi, demografik ko'rsatkichlar, hududiy maydonlar, tug'ilish va o'lim soni, migratsiya, imigratsiya, tabiiy o'sish.

### Annotatsiya


Ushbu maqolada Samarqand viloyatida joylashgan Tayloq tumani aholisining o'zgarish dinamikasi shuningdek aholining tabiiy harakatlari, o'zgarish sur'atlari, yosh jihatdan tartibga olish va boshqa bir qancha ko'rsatkichlar qiyosiy tahlil qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

### Kirish.

Tayloq – Samarqand viloyatidagi qishloq tumani hamda tuman markazi nomi. Tayloq – o'zbek urug'i. O'zbeklarda tayloqlarning oqtayloq, qoratayloq kabi tarmoqlari mavjud bo'lgan. Tayloq toponim bo'lib, shu asosda urug' nomi vujudga kelgan. Tayloq joy nomlarida va kishilar ismlarida ham uchraydi. Tuman nomiga shu nomli qishloq asos bo'lgan (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 477-bet).

Markazi – Tayloq shaharchasi. Tashkil topgan vaqti – 1992-yil 9-aprel. Umumiy maydoni – 0,28 ming km<sup>2</sup>. Shahar tipidagi posyolkalar (shaharchalar) soni – 3 ta. Mahalla fuqarolari yig'inlari soni – 50 ta, shundan shahar mahallalari soni – 3 ta, qishloq fuqarolari yig'inlari soni – 9 ta. Qishloq aholi punktlari – 87 ta. 2024-yil 1-yanvar holatidagi doimiy aholi soni – 221089 kishi (erkaklar – 111642, ayollar – 109447). Samarqand shahrigacha bo'lgan masofa – 10 km. Chegaradosh tumanlar – Urgut, Jomboy, Bulung'ur, Samarqand. Tuman hokimi – Bobonazarov Baxodir Qodirovich Manzil: 141500, Toyloq shahri, Amir Temur ko'chasi, 17-uy Telefon: (0366) 231-99-23 e-mail: [info@tayloq.uz](mailto:info@tayloq.uz) veb-sayt: [www.tayloq.uz](http://www.tayloq.uz)




**1-rasm . Tayloq tumanining hududiy ko'rinishi**

2019-yil Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, tuman aholisi 195,9 ming kishini tashkil etgan. Shundan 23.9 ming kishi shaharda 172 ming kishi qishloqlarda istiqomat qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Tayloq tumanining 2019-yil ma'lumotlariga ko'ra 12.2% qismi shaharlarda, 87.8 % qismi qishloqlarda istiqomat qilgan.

2024-yil yanvar-mart holatiga ko'ra tuman aholisi 222,2 ming kishini, shundan shaharda istiqomat qiluvchi aholi 27,4 ming kishini, qishloq aholisi esa 194,8 ming kishini tashkil etmoqda. Ikkala yildagi ma'lumotlarni solishtiradigan bo'lsak, aholi soni 2024-yilda aholi 2019-yilga nisbatan 13,4 % ga ko'p bo'lgan. Mos ravishda shahar va qishloq aholisining o'sish foizi 14,6 hamda 13,2 ga o'zgartirgan

	<b>JAMI AHOLI SONI, min g kishi</b>	<b>Shahar aholisi, ming kishi</b>	<b>Qishloq aholisi , ming kishi</b>	<b>Ko'chib kelganlar, ming kishi</b>	<b>Ko'chib ketganlar, ming kishi</b>	<b>Tuzilgan nikohlar soni</b>	<b>Nikohdan ajralishlar soni</b>	<b>Tug'ilganlar soni</b>	<b>Vafot etganlar soni</b>
<b>2019</b>	195.9	23.9	172.0	0.411	0.423	1,973	147	5,396	816
<b>2020</b>	200.5	24.4	176.1	0.303	0.372	1,881	190	5,612	927
<b>2021</b>	210.5	25.7	184.8	0.368	0.385	1,991	233	6,312	878
<b>2022</b>	215.7	26.5	189.2	0.348	0.332	1,867	360	5,96	780
<b>2023</b>	221.1	27.2	193.9	0.303	0.319	1,827	223	6,273	879
<b>2024 yanvar -mart</b>	222.2	27.4	194.8	0.055	0.075	321	58	1,332	230

Hududlar bo'yicha aholi soni (yil boshiga; ming kishi)	
2024-yil yanvar-mart holatiga*	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4 227,30</b>
Samarqand sh.	587,8
Kattaqo'rg'on sh.	95,1
<i>tumanlar:</i>	
Oqdaryo	174,1
Bulung'ur	203,1
Jomboy	190,6
Ishtixon	277,2
Kattaqo'rg'on	295
Qo'shrabot	142,4
Narpay	228,2
Payariq	274,6



Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-mart holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 252 kishi to'g'ri kelmoqda. Bu esa o'tgan yilning mos davriga solishtirilganda 6.4 kishiga ortgan. (2023-yil 1 kilometr kvadratga o'rtacha 245.6 kishi). Shahar va tumanlar bo'yicha olib qaraydigan bo'sak, aholi sonining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri(587,8 ming kishi), Urgut tumani(562,0 ming kishi ) hamda Pastdarg'om tumani( 385,0 ming kishi) va eng past ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (95,1 ming kishi), Qo'shrabot tumani(142,4 ming kishi ) hamda Paxtachi tumanlarida( 152,7 ming kishi) qayd etilgan.

Samarqand viloyati Tayloq tumanida 2024-yil yanvar-mart holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 252 kishi to'g'ri kelmoqda.

2023-yil holatiga ko'ra Tayloq tumaniga ko'chib kelganlar 303 nafarni, ko'chib ketganlar esa 319 nafarni tashkil etmoqda. Tayloq tumanidagi o'rtacha aholi soni 220 ming nafarni tashkil etmoqda.

Shundan kelib chiqadiki, ko'chib kelish koeffitsiyenti 1,4 promellini ko'chib ketish koeffitsiyenti esa 1,5 promellini tashkil etmoqda. Tumanda 2023-yilda 1827 ta nikoh tuzilgan, nikoh tuzish koeffitsiyenti esa 8,3 promellini tashkil etmoqda, tug'ilish soni 6273 nafarni tashkil etib, tug'ilish koeffitsiyenti 28,5 promelli bo'lib, har 1000 nafar aholiga 28,5 ta chaqaloq to'g'ri kelmoqda, vafot etganlar soni 879 nafar bo'lib vafot etish koeffitsiyenti 4 promelli hisoblangan. Tabiiy o'sish koeffitsiyenti 24,5 promellini tashkil etdi.

2024-yil yanvar-mart holatiga ko'ra Tayloq tumaniga ko'chib kelganlar 55 nafarni, ko'chib ketganlar esa 75 nafarni tashkil etmoqda. Tayloq tumanidagi o'rtacha aholi soni 221600 nafarni tashkil etmoqda. Shundan kelib chiqadiki, ko'chib kelish koeffitsiyenti 0,2 ni ko'chib ketish koeffitsiyenti esa 0,3 ni tashkil etmoqda. Tumanda yanvar-mart oralig'ida 321 ta nikoh tuzilgan, nikoh tuzish koeffitsiyenti esa 1,5 promellini tashkil etmoqda, tug'ilish soni 1332 bo'lib tug'ilish koeffitsiyenti 6 promelli bo'lib, har 1000 nafar aholiga 6 ta chaqaloq to'g'ri kelmoqda, vafot etganlar soni 230 nafar bo'lib vafot etish koeffitsiyenti 1 promelli hisoblangan. Tabiiy o'sish koeffitsiyenti 5 promellini tashkil etdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://samarkand.uz/towns\\_districts/taylak](https://samarkand.uz/towns_districts/taylak).
2. <https://www.samstat.uz/>.
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Toyloq\\_tumani](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Toyloq_tumani).
4. <https://www.stat.uz/uz/>.